

YOSHLARNING KASB TANLASHIDA PSIXOLOGIK VA SOTSIOLOGIK
OMILLARNING TA'SIRI

Tilovova Qizlarxon

*Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani
MMTB ga qarashli 65-maktab psixologi*

Annotatsiya: *Hozirgi tez rivojlanayotgan, iqtisodiy muammolarga boy zamonda yoshlar uchun o'zlariga mos kasb tanlash va bu kasbda muvaffaqiyatga erishish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari o'z qobiliyatlarini ochib beradigan, qiziqishlariga aloqador kasbni topish yoshlarning keyingi hayotini yanada sifatli bo'lishi kafolatidir. Bu maqolada yoshlarning kasb tanlashida muhim hisoblangan psixologik omillar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *martaba, karyera, mehnat bozori, voyaga yetish, balog'at, kasbiy taraqqiyot, shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация: *Для молодежи очень важно выбрать подходящую для себя профессию и преуспеть в этой профессии в сегодняшних бурно развивающихся и полных экономических проблем. Кроме того, обретение профессии, раскрывающей способности и связанной с интересами, является залогом лучшей будущей жизни для молодежи. В данной статье говорится о психологических факторах, которые считаются важными при выборе профессии молодыми людьми.*

Ключевые слова: *карьера, рынок труда, взрослость, профессиональное развитие, личностное развитие.*

Annotation: *It is very important for young people to choose a profession suitable for themselves and succeed in this profession in today's rapidly developing and full of economic problems. In addition, acquiring a profession that reveals abilities and is related to interests is the key to a better future life for young people. This article talks about the psychological factors that are considered important when choosing a profession by young people.*

Key words: *career, labor market, adulthood, professional development, personal development*

Insonlarning butun hayotiga ta'sir qiladiganeng muhim qarorlaridan biri bu o'zlariga mos kasb tanlashdir. Chunki inson umrining katta qismi shu kasb bilan o'tadi. Kishi kasbidan zavq olmasa, u bilan shug'ullanganda doimiy chaqchoq, horg'inlik his qilsa, bu uning sog'ligi va psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi.

Yoshlarning kelajak kasbini tanlashi, karyerasini rejalashtirishini ko'pgina psixologlar erta balog'atga yetishning asosiy belgilaridan biri sifatida e'tirof etadilar (Erikson, 1968). Sotsiologlarning fikricha karyera har bir insoning hayotidagi kasbiy taraqqiyotini, kasbga aloqador rivojlanishini ifodalovchi termin. Kasb esa

insonlarning o'z qobiliyatlari va salohiyatlarini ro'yobga chiqaruvchi va u orqali pul topish mumkin bo'lgan ishdir (Verner, 1957). Vernerning fikricha, insonning kasbi va uning shaxsiy rivojlanishi uzviy bog'liqdir. Inson kasbida qancha rivojlansa, bu uning shaxs sifatida rivojlanishiga, jamiyatda munosib o'rin egallashiga ham katta ta'sir qiladi. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'pgina biz hurmat qiladigan mashxur shaxslarning deyarli barchasi o'z kasbining ustalaridir. Kasbida mohir bo'lganliklari ularni insonlar orasida hurmatli va mashxur qilgan. Bu mohirlikning sababi esa ularning o'z salohiyatlari va qiziqishlariga mos, o'zlari zavq oladigan kasbni topa olganliklaridadir.

Olimlar yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir qiladigan asosiy omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etishadi:

- 1.Oiladagi muhit;
- 2.Tengdoshlar ta'sir;
- 3.Madaniyat;
- 4.Shaxsning qobiliyati va qiziqish.

Asosan, ota-onasi bilan aloqalari yaxshi, oilaviy muhitdan qoniqqan yoshlar ota-onasining kasbini davom ettirishga ishtiyoqmand bo'lishadi (Germeijs va Verschueren, 2009). Katterson va Blustein (1997) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'pgina ota-onasi bilan ahil munosabatda bo'lgan va ularni hurmat qilgan bolalar ota-onasining kasbini xavfsiz deb o'ylashadi.

Yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir qiluvchi keyingi omil ularning tengdoshlaridir. Ko'pgina balog'at yoshidagi bolalar oilasi bilan munosabatlarda muammolarga duch kelishadi. Natijada ulardan uzoqlashib, tengdoshlari bilan ko'proq muloqot qilishadi. Yaqin do'stlari qiziqqan sohaga ular ham qiziqib ko'radilar. Bu ularga mustaqil o'z qobiliyatlarini o'rganish, o'zini turli sohalarda sinab ko'rish, o'zlarini yanada ko'proq o'rganish imkoniyatini beradi deydi psixolog Flesman va Blustien (1999).

Madaniyat ham yoshlarning kasb tanlash bilan bog'liq qarorlariga sezilarli darajada ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Qaysidir madaniyatda o'qituvchilik e'zozlansa, o'sha millatning ko'p yoshlarining orzusi o'qituvchi bo'lish hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zi jamiyatlarda ma'lum bir kasb uchun bo'sh ish o'rni va bu kasbni egallashga imkoniyatlar ko'p. Bu omil ham yoshlarning kelajakdagi kasbiga doir qarorlariga sezilarli ta'sir qiladi.

Shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb tanlash yoshlarning kasbiy rivojlanishini kafolatlovchi eng samarali omil sifatida ko'p psixolog olimlar tomonidan e'tirof e'tiladi. Chunki, har bir insonda qiziqish, ijtimoiy muhit, qobiliyat va salohiyat turlicha. O'z qiziqqan sohasida faoliyat yuritish insonga kasbidan zavqlanish, qiyinchilik paytarida kuch va energiya beradi. Ko'pincha bu omilga e'tibor berib kasb tanlaydigan insonlar voyaga yetgan, tanqidiy fikrlashi shakllangan, mustaqil fikrga ega bo'ladilar (Betz va Voyten, 1997). Tadqiqotlarning ko'pchiligi, shaxsiy qiziqishlari va salohiyatidan kelib chiqib kasb tanlagan insonlarda kasblaridan qoniqish hissi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kasb tanlash murakkab jarayon. Ba'zilar bu oson o'zlariga mos kasb topadilar, ba'zilardan esa o'zlari yoqtirgan kasb topish yillarni talab qiladi. Yoshlarning kelajakdagi kasbi bilan aloqador qarorlarni qabul qilishi yuqorida ta'kidlangan omillarga uzviy bog'liqdir. Mening fikrimcha, yoshlar uchun asosiy maskan bu oila. Oiladagi muhitning sog'lom bo'lishi, ota-ona bolani shaxs sifatida erkin fikrlaydigan, mustaqil qilib tarbiyalashi, yoshligidan qobiliyatlarini aniqlashga va ularni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishi bolalarning kelajakda yetuk shaxs, o'zi yoqtirgan kasbning mohir egasi bo'lib yetishlari uchun asosiy vositadir.

FOYFALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Verner, H. (1957). Qiyosiy va organizm nuqtai nazaridan rivojlanish kontsepsiyasi. In: D.B. Xarris (tahr.), Rivojlanish kontsepsiyasi. Minneapolis, Minnesota universiteti matbuoti.
2. Ketterson, T. U. va Blustein, D. L. (1997). Qo'shilish munosabatlari va martaba izlanish jarayoni. Karyera rivojlantirish choraklik, 46(2), 167-178.
3. Erikson, E. H. (1968). Identifikatsiya: Yoshlik va inqiroz. Nyu-York: Norton.
4. Vilkinson, R. B. (2004). Ota-onalar va tengdoshlar bilan bog'lanishning psixologik o'rni, o'smirlarning salomatligi va o'zini o'zi qadrlashi. Yoshlik va o'smirlik jurnali, 33(6), 479-493.